

O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARDA IJTIMOIY DEVIANT XULQ ATVORINI O‘RGANISHDA PROYEKTIV METODIKALARING O‘RNI

Rahmanqulov Shuhrat - Jizzax davlat pedagogika universiteti, Umumiy psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Ergasheva Gulshan- JDPU, Psixologiya (amaliy psixologiya) yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: O‘smirlar psixologiyasini va ularda deviant xulq atvorini aniqlashda proyektiv metodikalardan foydalanish juda yaxshi samara beradi. Proyektiv metodikalar tufayli o‘smirlar ularni xulq atvorini ongsiz mustaqil o‘ganish muammoga yechim topishdan iboratdir. Hozirgi kunda o‘smirlar shaxsining xulq atvoridagi bunday o‘zgarishlarni aniqlashda anketa, test va so‘rovnomalar yaxshi natija bermaydi. Har doim ham proyektiv metodlardan foydalanganda yaxshi samara beradi.

Kalit so‘zlar: Proyektiv metodikalar ,deviant xulq, rivojlanish, tadqiqot usullari, o‘smirlilik, rivojlanish.

Hozirgi kunda o‘smir yoshdag, bolalardagi deviant xulq atvori kundan-kunga o‘zgarib, ularning oldini olish uchun proyektiv metodikalardan foydalangan holda ularga yechim topishga qaratilmoqda . Psixologiya fani va amaliyotida shaxsni o‘rganishning Proyektiv metodikalari alohida o‘ringa ega. Uning yuzaga kelishi va rivojlanishida shaxs, uning ichki dunyosini bilish imkoniyati haqidagi g‘oyalarga bo‘lgan psixologik qarashlar evolyusiyasi aks etadi. Yarim asrlik rivojlanish tarixiga ega Proyektiv psixologiya bugungi kunda inson haqidagi psixologik bilim sohalaridan biri bo‘lib, uni o‘zlashtirmay shaxs haqidagi yaxlit tasavvurlarni shakllantirish mumkin emas. Shaxsni tadqiq qilishning Proyektiv metodi Proyeksiyalarni aniqlash va tasvirlashga asoslangan.

«Proyeksiya» tushunchasi dastlab Z. Freyd tomonidan subyektning ongli va ongsiz tarzda ko‘chirilgan shaxsiy xususiyatlari, tashqi obyektlarga nisbatan holatlarning mazmunini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Proyeksiya lotincha «proektio» so‘zidan olingan bo‘lib, oldinga irg‘itish, tashlash ma’nosini bildiradi. Shaxsni o‘rganishning Proyektiv metodi eksperiment natijalariga asosan Proyeksiyalari aniqlash va so‘ngra ularni tahlil qilishni ko‘zda tutadi.

Proyeksiya tushunchasini tavsiflash «Men»ning himoya mexanizmlari bilan uzviy bog‘liq. Proyeksiya sublimatsiya, ratsionalizatsiya, siqib chiqarish bilan bir qatorda himoya mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi.

Proyektiv metodlar yordamida inson Proyeksiyalarining psixologik mexanizmlari o‘rganiladi. G. S. Friman Proyeksiyani:

- 1) Ongsizlik holati, yani insonning bu holatda boshqa kishilarning g‘oya, qarash, istak, emotsiya yoki xarakter xislatlarini o‘ziga olishi sifatida;
- 2) O‘z shaxsiy ehtiyojlarini boshqalarga ko‘chirish sifatida;

3) Qandaydir tajribaga asoslangan noto‘g‘ri xulosa chiqarish sifatida qaraydi.

Proyektiv metodlar tekshiriluvchini shunday holatga qo‘yadiki, bunda uning shaxsiy ehtiyojlari, uning o‘ziga xos idroki, tavsiflari va ko‘pgina xarakter xislatlari namoyon bo‘ladi. Proyeksiya so‘zli assotsiatsiyalar, tugallanmagan jumlalar, rasm va dog‘lar, tekshiriluvchining chizgan rasmlari kabi verbal hamda rasmi metodlarning barchasini qo‘llaganda kuzatiladi.

Proyeksiya voqelikni, odamlarni, namoyon qilingan stimullarni idrok etish muayyan darajada shaxsning psixik holati, ehtiyoj, motiv, ustanovkalariga asoslangan. Bunda voqelikni shaxsning psixik holati, ehtiyojlari, xususiyatlariga mos ravishda tavsiflash tendensiyasi mavjud. Proyeksiya anglanmagan psixologik mexanizm hisoblanadi, ya’ni Proyeksiya elementlari ongsiz tarzda idrok qilinadi.

Proyektiv metodikalarning asosiylari, o‘ziga xos xususiyati -foydalaniladigan stimullarning ko‘p ma’noli, noaniq ekanligidir. Biroq, tekshiriluvchiga tavsiya qilinadigan stimul (rasm, rant, dog, verbal informatsiya bo‘lishidan qat’iy nazar) noaniq, ko‘p ma’noli ekanligiga qaramay obyektiv xarakterga ega va subyekt tomonidan yaratilgan obraz yoki yuzaga kelgan vaziyatga kiritiladigan muayyan xususiyatlarga ega. Olingan natijalar tekshiriluvchi shaxsi haqidagi bilimlar, uni psixologik jihatdan chuqur o‘rganish asosida, shuningdek, psixodiagnostikaning boshqa metodlarini qo‘llagan holda tavsiflanishi zarur.

Proyektiv metodikalar tarixi 1904-1905 yillarda K.Yung tomonidan yaratilgan so‘zli assotsiatsiyalar testiga borib taqaladi. Bu metodikani yaratish bilan Yung shaxsning ongsizlik holatidagi kechinmalarini assotsiativ diagnostika qilish mumkinligini ko‘rsatib berdi. Keyinchalik assotsiativ testing turli variantlari aybdorlik hissini aniqlash (yolg‘on detektori, M.Verettymer va L.R.Luriya), normani patologiyadan ajratish va boshqalar uchun qo‘llanildi. Tugallanmagan hikoya yoki gap testi ham Yungning assotsiativ testidan kelib chiqqan deb hisoblanadi.

Proyektiv metodikalar (lot.projectio -oldinga o‘tish)- proyektiv diagnostik nuqtai nazar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, shaxsni o‘rganishga yo‘naltirilgan metodikalar majmuidir. Dastlab 1939 yilda L.Frank bu metodikalarni belgilash uchun proeksiya tushunchasini kiritgan, bu tushunchani o‘zgartirishga bir necha urinish bo‘lishiga qaramasdan psixologik diagnostika fanida barcha tomonidan e’tirof etildi.

Proyektiv metodlarning muhim belgisi shundan iboratki, bunda aniq bo‘lmagan, bir xil tuzilmagan stimullardan foydalaniladi. Sinaluvchi uni qayta qurishi, rivojlantirishi, to‘ldirishi, sharhlashi zarur. Proyektiv farazga mos ravishda individumning har bir hissiyoti, uning idroki, his-tuyg‘ulari, fikrlari, harakatlarida shaxsning izini qoldiradi. Insonni faollika undovchi stimul-vaziyatlar qanchalik kam stereotip bo‘lsa, shaxs o‘zini shunchalik yorqinroq namoyon qiladi. Proyektiv metodikalardagi stimullar nafaqat uning obyektiv mazmuniga ko‘ra ahamiyatga ega bo‘lmaydi, sinaluvchi uchun shaxsiy ma’nosiga ko‘ra ham ega bo‘ladi. Ana

shundan proaktiv metodikalar uchun xos bo‘lgan javoblarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri deb baholash xos emas.

Proeksiyani shunday tushunish uni psixoanalitik talqin qilishdan tubdan farq qiladi. Psixoanaliz proeksiyani himoya mexanizmlaridan biri deb hisobladi. Bunda “Men” uchun hos bo‘lgan ichki impulslar va hissiyotlar tashqi obyektga yo‘naltiriladi, tevarak atrofni o‘zgargan holda idrok qilish sifatida ongga kirib boradi.

Stimul vaziyati bilan bog‘liq proeksiya jarayonini dastlab G.Myurrey tavsiflagan. Myurreyning ta’kidlashicha, proeksiya insonning o‘z qiziqishlari, ehtiyojlari ta’siri ostida harakat qilishi tabiiy holati bilan bog‘lanadi. Uning fikricha, himoya mexanizmlari proeksiya jarayonida namoyon bo‘lishi ham, namoyon bo‘lmasligi ham mumkin.

XX asrning 40-yillarida g‘arb psixologiyasi”da “proaktiv harkatlar” rivojlandi. Proaktiv metodikalar psixodiagnostikada keng ommalashadi, an’naviy psixodiagnostik testlar ikinchi darajaga siqib chiqariladi. Hozirgi vaqtida g‘arb psixologiyasida shaxsni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda, ayniqsa klinik psixodiagnostika sohasida keng qo‘llanilmoqda. Bunga misol sifatida dunyoning ko‘p davlatlarida tashkil etilgan maxsus ilmiy institut va jamiyatlar, faqatgina proaktiv metodikalarga bag‘ishlangan davriy nashrlar, to‘plamlar va monografiyalar, doimiy ravishda o‘tkaziluvchi xalqaro konferensiyalar misol bo‘ladi.

Shuning uchun proaktiv metodikalar bilan olingan natijalarni boshqa tadqiqotlar, sinaluvchining hayot yo‘li haqida ma’lumotlar bilan solishtirish lozim. Proyektiv metodikalardan foydalanish tufayli os‘mirlar tarbiyasida ijobiyl o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi va ularning xulq atvoridagi o‘zgarishlarni oldindan aniqlashga yordam beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yhati

1.Z.T.Nishanova Z.Qurbanova, Sh.To‘laganova ,S.Abdiyev Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya .Toshkent -2015

2.G‘oyibova N.A, Jalilova. S.X.Umumiyl psixodiagnostika T: “Fan va Texnologiya” 2018, 260bet

3. RAHMANQULOV, S. (2024). YOSHLARDA FAOL HAYOTIY POZITSIYANI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSI. News of UzMU journal, 1(1.2. 1), 181-184.

4. Abduhamidovich, R. S. (2023). O ‘ZBEKISTONDA MILLIY TA’LIM TIZIMINI CHET EL TA’LIM TIZIMI ASOSIDA RIVOJLANТИRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI. Conferencea, 97-101.

5. Abduhamidovich, R. S. (2023). AKADEMİK MOBILLIK–BOLONIYA JARAYONLARINING MUHIM SHARTI SIFATIDA. Conferencea, 126-131

6.Rahmanqulov, S. (2024). MEHRIBONLIK UYI BOLALARINING PSIXOLOGIK VA AXLOQIY RIVOJLANISHI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 58-60. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9719>

7. Sangirova, N. (2024). SHAXS IJTIMOIYLASHUVIDA OILANING ROLI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 69-73. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9725>
- 8.Sangirova, N. (2024). ШАХСДА ГЕНДЕР УСТАНОВКАЛАРИНИНГ ЎЗИНИ-ЎЗИ ИДРОК ЕТИШ БИЛАН БОҒЛИҚЛИГИ МУАММОЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 74-81. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9749>
- 9.Alibekov, Davron. “Sharq mutafakirlarining ta’lim-tarbiya borasidagi qarashlari.” Журнал музыки и искусства 2.1 (2021).
- 10.O’tamuradova, G. (2024). БЕРУНИЙИНГСОГЛОМ АВЛОД ТАРБИЯСИ ҲАҚИДАГИ ПСИХОЛОГИК ҚАРАШЛАРИ . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 95-103. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9764>
- 11.Mamaraimova, R. (2024). ПСИХОЛОГИЯ РЕЛИГИОЗНАЯ ИСПОВЕДИ И МЕДИТАЦИИ . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 30-36. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9645>
- 12.Mamaraimova, R. (2024). КАК НЕ ПОДДАВАТЬСЯ ПРОВОКАЦИЯМ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 23-29. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9644>
- 13.Ахмедова Насиба Ачиловна. (2022). КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАРДА ИЖТИМОЙ КОМПІТЕНТЛІКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(12), 529–532. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7337671>
- 14.Р.У.Мамараимова. (2022). ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНШНИНГ МАЗМУН МОХИЯТИ. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(12), 513–517. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7337651>
- 15.Mamaraimova, R. (2022). УМУМ ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5549>
- 16.Mamaraimova, R. (2021). КИЧИК МАКТАБ ЁШИ ЎҚУВЧИЛАР КОМПЕТЕНТЛІК ХУСУСИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ БАЪЗИ ЖИҲАТЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2967>
- 17.O’ralova, O. (2024). ABU NASR FOROBIYNING MEROSINI O’RGANISH. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 125-129. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9796>
- 18.Abduhamidovich, R. S. (2023). AKADEMİK MOBILLIK–BOLONIYA JARAYONLARINING MUHIM SHARTI SIFATIDA. Conferencea, 126-131.

19. Abduhamidovich, R. S. (2023). O ‘ZBEKISTONDA MILLIY TA’LIM TIZIMINI CHET EL TA’LIM TIZIMI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO ‘NALISHLARI. *Conferencea*, 97-101.
20. Rahmanqulov, S. (2024). MEHRIBONLIK UYI BOLALARINING PSIXOLOGIK VA AXLOQIY RIVOJLANISHI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 58-60. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9719>
21. Soibnazarova, M. (2024). MAS’ULIYATLILIKNI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSIYANING O‘ZIGA XOS MEZONLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 71-77. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9534>
22. RAHMANQULOV, S. (2024). YOSHLARDA FAOL HAYOTIY POZITSIYANI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSI. News of UzMU journal, 1(1.2. 1), 181-184.
23. Abduhamidovich, R. S. (2023). O ‘ZBEKISTONDA MILLIY TA’LIM TIZIMINI CHET EL TA’LIM TIZIMI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO ‘NALISHLARI. *Conferencea*, 97-101.
24. Abduhamidovich, R. S. (2023). AKADEMIK MOBILLIK–BOLONIYA JARAYONLARINING MUHIM SHARTI SIFATIDA. *Conferencea*, 126-131.
25. Баратуллаева, Д. (2024). AYOLLARDA STRESS KECHISHI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 48-52. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9695>
26. Fayziyeva, N. (2024). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 149-155. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9805>